

daromadlilik egri chizig'ini bozor ishtirokchilari kutilmalari bo'yicha reprezentativligini ta'minlash maqsadida asosiy benchmark muddatlar bo'yicha (1, 2, 3, 5 va 10 yillik) davlat qimmatli qog'ozlarini doimiy emissiya qilib borilishi muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, banklardagi ortiqcha likvidlilikni bartaraf etish maqsadida Markaziy bank depozit auksionlari va o'zining obligatsiyalari bilan operatsiyalarni taklif qilishi mumkin. Aksincha, likvidlilikning yetishmasligi sharoitida Markaziy bank lombard kreditlari va REPO operatsiyalari yordamida bank tizimiga qo'shimcha likvidlilikni taqdim etishi mumkin.

Kredit majburiyatlari ikkilamchi bozorining shakllanishi bank tomonidan avval berilgan kreditlar asosida qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish amaliyotlarining rivojlanishi, boshqacha aytganda, kredit portfelini sekyuritizatsiyalashni taqozo etadi. Bu holatda kredit majburiyatlarining ta'minlanishi riski banklar tomonidan kredit riskini samarali boshqarilishiga chambarchas bog'liq bo'ladi. Umuman olganda, kredit majburiyatlari ikkilamchi bozorining faoliyat yuritishi bilan banklar uchun qo'shimcha likvidlilik manbasi vujudga keladi.

Fikrimizcha, kredit majburiyatlari bozorining shaffofligini ta'minlash masalasi bank kredit portfeli sifatini baholashning unifikatsiyalashgan standartlarini ishlab chiqish orqali hal etilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Moliya bozori barqarorligini ta'minlashda Monetar siyosat instrumentlari orqali tijorat banklari likvidlilikini tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, Moliya bozori barqarorligi bank tizimi likvidlilikiga chambarchas bog'liq. Shuningdek, Moliya bozori banklar uchun likvidlik manbai hisoblanadi. Banklar qimmatli qog'ozlar (masalan, obligatsiyalar va aksiyalar) bozorida ishtirok etib, likvidligini oshirishi va qo'shimcha kapital jalb qilishi mumkin.

ISLOM MOLIIYASIDA TAKOFUL- SUG'URTA MUNOSABATLARINING XUSUSIYATLARI

Sodikov Zokir Rustamovich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, i.f.n.

Jahonda moliya sohasi uzoq tarixiy rivojlanish jarayoniga ega bo'lib, xususan, Shumer va Bobil sivilizatsiyasiga borib taqaladi. Ma'lumki, pul ixtiro qilinganidan keyin, hozirgi ma'noda banklar bo'lmasa ham, ularning vazifalarini bajaradigan turli mexanizmlar mavjud bo'lganligi tabiiy bo'lgani kabi shu davrlarda kishilarning bir-biriga o'zaro yordam berishi hamda qo'llab-quvvatlashi, ya'ni, sug'urtaga o'xshash amaliyotlar ham yuzaga chiqqanligi ayni haqiqat, desak mubolag'a emas. Lekin, an'anaviy sug'urta amaliyoti jahonda 17-19-asrlardan boshlab savdo va sanoatning rivojlanishi bilan mutanosib ravishda jadal taraqqiy etish bosqichiga kirgan. Hozirda har qanday milliy iqtisodiyotning

faoliyati sug'urta munosabatlari va bozori bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshishi qonuniyatga aylangan.

Muqobil variant sifatida tarixda mavjud bo'lsa-da, zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida 20 - asrning 50-60-yillarida nazariy mulohazalari boshlangan foizsiz yoki takoful sug'urta g'oyasining 1970-1980-yillarda dastlabki, amaliy namunasi paydo bo'lgan. Xususan, Sudanda 1979-yilda, undan keyin uzoq sharq, yaqin va o'rta sharq mamlakatlarida takoful sug'urta munosabatlari vujudga kela boshlagan, shundan so'ng bu amaliyot rivojlangan davlatlarga ommalashgan va hozirda jahondagi aksariyat mamlakatlarga bu foizsiz yoki islomiy yohud takoful sug'urta munosabatlari kirib borgan. Shu bois, bugungi kunda Islom sug'urtasini yoki takoful munosabatlarini va ularning faoliyat mexanizmini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Aynan mazkur tadqiqotning mohiyati islom tamoyillariga asoslangan sug'urtaning moliyaviy qonuniyat mezonlari doirasida faoliyat olib borishi va undan kelib chiqadigan vaziyatlarni bozor munosabatlari sharoitida islom fiqhi talablariga binoan tashkil etish amaliyotida namoyon bo'ladi. Bunda takoful sug'urtaning biznes maqsadli faoliyat olib borishi va bu jarayonning islom fiqhi qoidalariga muvofiqligi ta'minlanishi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, takoful sug'urta faoliyati natijasida islom shariati standartlariga binoan biznes xarakteridagi foyda olishni ham ko'zda tutadi. Ana shu jihatlardan kelib chiqqan holda takoful yoki foizsiz sug'urta masalasi tahlil qilinganda va uni tashkil etish jarayoni o'rganilganda masala haqidagi mulohazalar islom fiqhi mezonlari va talablariga tayanishi hamda sug'urtaning faoliyati bilan bog'liq har qanday munosabatlar tizimi mazkur qonuniyatlar doirasida xulosa qilinishi kerak bo'ladi.

Aynan, bunda muqobil moliya tizimining bir ko'rinishi sifatida takoful yoki foizsiz sug'urta kompaniyalarining faoliyatida mutlaq ustuvorlik foydaga yoki shaxsiy manfaatdorlikka qaratilgan bo'lmasligi yohud ijtimoiy ustuvorlik muhim hisoblanishi kerak bo'ladi. Shu bois, ijtimoiy adolatga asoslangan va bozor talablariga muvofiq tarzda mo'tadil foyda olishni ma'qullovchi hamda insonparvarlikni qo'llab-quvvatlovchi, xudbinlikni man qiluvchi va saxovatni rag'batlantiruvchi, biznes jarayonida sodir bo'ladigan xavf-xatarlar va risklarni mijoz bilan birgalikda, hamjihatlikda bartaraf qilishni yoki kamaytirishni ustuvor hisoblaydigan mexanizmdir. Takoful sug'urta bozori - o'z faoliyatini ijtimoiy birdamlik asosida islom fiqhi tamoyillariga binoan tashkil etib, ushbu tamoyillar asosida fondlarni shakllantirib, ularni o'ziga xos sherikchilik, savdo, lizing va boshqa ana shunday modellardan foydalanib iqtisodiy jarayonlarga yo'naltiradigan biznes subyektlari faoliyatini hamda mol-mulkini takoful qonuniyatiga binoan sug'urta qiladigan yoki kafolatlaydigan moliya muassasasi hisoblanadi.

Shu bois takoful yoki foizsiz sug'urta – muqobil kafolatlash mexanizmi asosida faoliyat olib boradigan hamda o'z biznes faoliyatlarini va moddiy-moliyaviy boyliklarini an'anaviy sug'urta kompaniyalari orqali kafolatlashga moyil bo'lmagan jismoniy va yuridik shaxslar uchun yangi va o'ziga xos tizim

sifatida vujudga kelganligini, uning tamoyillaridan va rivojlanish tendensiyalaridan xulosa qilish mumkin.

Jahon amaliyotida mavjud ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblangan sudxo'rlik va u bilan bog'liq masalaga aksariyat huquqiy tizimlar va madaniyatlarda, shuningdek, diniy ta'limotlarda va manbalarda xayrixohlik bildirilmaganligini hamda ular haqida o'ziga xos bahs-munozaralar bo'lganligini kuzatish mumkin. Uning tarixiy taraqqiyotiga va sarguzashtlariga nazar tashlanadigan bo'lsa, kishilik jamiyatlarida kuzatiladigan iqtisodiy va moliyaviy munosabatlar jarayonida kelib chiqadigan muammolardan biri bu sudxo'rlik masalasi ekanligi ma'lum bo'ladi. Zero, qadim zamonlardan buyon foiz bilan savdo - sotiq munosabatlarining talqinida yakdil to'xtamga kelinmagan va ular munosabat xususiyatiga ko'ra bir-biridan mohiyatan farqliligi borasida xulosalar qilingan. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti mobaynida muqaddaslik maqomiga ega bo'lgan ibodatxonalarga va ularda faoliyat olib boradigan mas'ul kishilarga nisbatan juda qattiq hurmat bilan munosabatda bo'lganlar hamda ularga qattiq ishonganlar.

Shu bois kishilar moddiy-ashyolariga va boyliklariga biron bir zarar, ya'ni, o'g'irlanishi, yo'qolib qolishi va boshqa zararlar yetishini va xavf-xatar bo'lishini oldini olish uchun, o'z mol - mulklarini ishonchli saqlash maqsadida ibodatxonalarga omonatga qo'yganlar yoki bugungi talqin bilan mazkur amaliyot orqali o'z mol-mulkini sug'urta qilganlar. Ushbu, Ibodatxonalarga qo'yilgan omonat bo'lgan mol - mulklarning bir qismi Alloh yo'liga sadaqa yoki qurbonlik sifatida xayriya qilingan. Zero, ibodatxonalar uchun mas'ul bo'lgan vakolatli shaxslar bu mol-mulklarni va boyliklarni muhtojlarga tarqatib berish borasida mas'ul bo'lganlar, ya'ni, ijtimoiy himoya faoliyati bilan shug'ullanishlari ko'zda tutilgan. Ibodatxonalarga omonatlarni ishonib topshirish jarayoni dastlab evazsiz va tekinga amalga oshirilgan, ya'ni, xolis bajarilgan bo'lsa-da, keyinchalik vaqt o'tishi bilan bu munosabatlarni amalga oshirish jarayonida haq olish yoki foiz qo'yib, qarz berish shakli vujudga kela boshlaganligi uchun ularning muhofazasi yoki sug'urtasi ham badalli tarzda amalga oshirilishi rivojlana boshlagan.

Mazkur vaziyatlar shundan darak beradiki, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonining o'ziga xos ko'plab masalalaridan biri bo'lgan sug'urta qilish yoki muhofaza qilish mexanizmi bu masala faqat diniy yoki uning ta'limotlariga taalluqli masala sifatida talqin qilinishi to'g'ri yondashuv emasligini yoki masalani to'liq qamrab olinmayotganligini ko'rsatadi. Chunki, bu masalaga nisbatan an'anaviy iqtisodiy ta'limotlar ham o'ziga xos tarzda yondashadi va talqinlar qiladi. Xususan, iqtisodiy ta'limotlar ham, milliy hukumatlar ham, hatto biznesmenlar ham foiz stavkasini pasaytirish ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga, umuman, milliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishini e'tirof etadi. Ushbu mantiqiy xulosa, aynan, sug'urta munosabatlariga ham xos hisoblanadi. Xususan, takoful sug'urta biznes asosida emas, balki, ijtimoiy tarzda tashkil etilishi va birdamlikka tayanishi uning ustuvor jihati hisoblanadi. Demak, takofulga asoslangan sug'urta munosabatlarini amalga oshirish milliy bozor

uchun yanada ko'proq ijobiy natijalarga olib kelsa, uning aksi esa muammolarning manbayi bo'lib, xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda turli ta'limotlar, mafkuralar, g'oyalar va dinlarning sug'urta faoliyati masalasiga nisbatan munosabatlari bir-biridan katta farq qiladi.

Shuning uchun ularning amaliyotga aylanishi va kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzida namoyon bo'lishi har xil darajalarda va miqyoslarda kuzatilishi mumkin. Bular ichida bu masalaga islom manbalarida va ta'limotlarida kengroq e'tibor qaratilganligi uchun musulmon xalqlar va kishilar islomiy qadriyat sifatida foizsiz moliyaviy munosabatlarga, xususan, sug'urta va u bilan bog'liq jarayonlarga alohida e'tibor qaratgan va uni rivojlantirishga ustuvor vazifa tarzida yondoshgan.

Zero, dastlab Islom taraqqiyot banki va shunga o'xshash foizsiz faoliyat olib boradigan moliya muassasalari aholisining aksariyati musulmon xalqlardan iborat bo'lgan Misr, BAA, Malayziya, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Turkiya, Indoneziya kabilarda tashkil etilgan bo'lsa, hozirgi kunda jahonning ko'plab taraqqiy etgan mamlakatlarida takoful sug'urta va unga yondosh moliya muassasalari tashkil etilib, keng ko'lamli faoliyatini amalga oshirmoqda. Bu tadqiqotning o'ziga xos xususiyatlari bu takoful sug'urta faoliyatida Islom fihi talablariga va odobiga rioya qilishi ustuvor vazifaligini tushuntirishda namoyon bo'ladi. Xususan, bu takoful sug'urtada riboga asoslangan munosabatlarni amalga oshirmaslik bilan bir qatorda Islom ta'limotlarida belgilangan axloqiy mezonlarga va fiqhda tartibga solingan normalarga rioya qilishi talab etiladi. Shuningdek, sug'urta munosabatlari jarayonida g'arar, maysir, ixtikor va boshqa shu kabi illatlarni faoliyatlari mobaynida amalga oshirishiga ruxsat berilmaydi.

ISLOM MOLIYA HUQUQI MANBALARI TAHLILI VA XALQARO MAYDONDA ISLOM MOLIYAVIY XIZMATLARINI TASHKIL ETISHDAGI O'RNI

Ubaydullayev Abror Qutpilla o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti

Yigirma birinchi asr avvaliga kelib dunyoda bir qator iqtisodiy inqirozlarning sodir bo'lishi, jahon iqtisodiyoti hamon shunday moliyaviy inqiroz asoratlaridan xalos bo'la olmayotgani, jahonda hukmronlik qilayotgan an'anaviy iqtisodiy tizim ham kamchiliklardan holi emasligini ko'rsatib qo'ydi. Shunday vaziyatda dunyo iqtisodiyoti uchun raqobatbardosh, bugungi jahon moliyaviy tizimidagi muayyan kamchiliklarni to'ldiruvchi yoki o'rnini bosuvchi alternativ moliyaviy mexanizmlarga har qachongidan-da qattiq ehtiyoj sezmoqda. Ana shunday muqobil moliyaviy xizmatlar taklif etishi mumkin bo'lgan hamda aksar moliyaviy mahsulotlari so'nggi yillarda o'zining iqtisodiy turg'unliklariga nisbatan chidamliligi bilan tanilib borayotgan tizim bu Islom moliyasidir.